



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI TARTIBGA SOLISHNING IQTISODIY
MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ
ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА**

**IMPROVING ECONOMIC MECHANISMS FOR REGULATING INDUSTRIAL
PRODUCTION**

Xodjaeva Feruza Komilovna

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilanadi va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini taklif etiladi. Tadqiqotda mavjud vositalar baholanib, xalqaro tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar mavjud mexanizmlarning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganini ko‘rsatadi. Bozor mexanizmlarini kengaytirish, fiskal rag‘batlarni takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish sanoat samaradorligi va barqarorligini oshirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sanoat siyosati, iqtisodiy tartibga solish, sanoat ishlab chiqarishi, fiskal instrumentlar.

В данной статье анализируются экономические механизмы регулирования промышленного производства и предлагаются пути повышения их эффективности. В исследовании оцениваются существующие инструменты и разрабатываются рекомендации на основе международного опыта. Результаты показывают, что существующие механизмы недостаточно диверсифицированы. Расширение рыночных механизмов, совершенствование фискальных стимулов и развитие государственно-частного партнерства могут повысить эффективность и устойчивость промышленного производства.

Ключевые слова: промышленная политика, экономическое регулирование, промышленное производство, фискальные инструменты.

This article analyzes the economic mechanisms of regulating industrial production and proposes ways to improve their efficiency. The study evaluates existing instruments and develops recommendations based on international experience. The results show that current mechanisms are insufficiently diversified. Expanding market-based instruments, improving fiscal incentives, and strengthening public-private partnerships can enhance the efficiency and sustainability of industrial production.

Keywords: industrial policy, economic regulation, industrial production, fiscal instruments.

Zamonaviy iqtisodiyotda sanoat sektori iqtisodiy o‘shish, bandlik va eksport salohiyatini oshirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishini samarali tartibga solish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasi hali ham takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois iqtisodiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarish hajmi ham barqaror o‘shish dinamikasiga ega. Masalan, “2018- yilda 235 trln so‘mni tashkil etgan sanoat ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 880 trln so‘mga yetgan bo‘lib, bu qariyb 4 baravar o‘shishni anglatadi. 2025–2026 yillarda ham ushbu ko‘rsatkichning 800–

900 trln so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda” [1]. Bu esa sanoat sektorining iqtisodiy o‘shisdagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari masalasi iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy tartibga solishning turli modellari, ularning samaradorligi va iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini yoritishga qaratilgan.


Zamonaviy iqtisodiy qarashlarda Dani Rodrik - “sanoat siyosatini samarali tashkil etishda moslashuvchan va selektiv iqtisodiy mexanizmlar muhimligini ta‘kidlab” [2] o‘tgan. Ha-Joon Chang esa “rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilib, sanoat rivojlanishida davlat qo‘llab-quvvatlash siyosati hal qiluvchi rol o‘ynaganini ilmiy asoslagan” [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham sanoatni tartibga solish masalalari keng yoritilgan. Xususan, Saidahrar G‘ulomov o‘z tadqiqotlarida: “iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun samarali iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish” [4] zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, davlat tomonidan yaratiladigan institutsional sharoitlar sanoatning barqaror o‘shishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Abdug‘ani Abdullayev – “sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda investitsiya siyosati va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash muhim ahamiyat kasb etishini” [5] asoslab bergan. U sanoatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. B. Khodiev esa “milliy iqtisodiyotda sanoat sektorining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va bozor mexanizmlarini keng joriy etish” [6] zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish sanoat rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishini samarali tartibga solish uchun davlat va bozor mexanizmlarining optimal uyg‘unligi, iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarining diversifikatsiyasi hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini baholash va ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Xususan, tadqiqotda tahlil va sintez usullari orqali sanoat sektorining asosiy ko‘rsatkichlari o‘rganildi hamda mavjud iqtisodiy mexanizmlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy manbalar tashkil etdi. Shuningdek, iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini aniqlashda tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Quyidagi 1-rasmda oxirgi 10 yil ichida sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishini ko‘rishingiz mumkin.



1-rasm. O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarish hajmi dinamikasi [7]

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2014–2024 yillar davomida O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 2014-yildagi 84,0 trln so‘mlik ko‘rsatkich 2024-yilda 880,2 trln so‘mga yetib, qariyb 10 baravar oshgan. Dastlabki yillarda o‘shish nisbatan barqaror bo‘lgan bo‘lsa, 2017–2018 yillarda iqtisodiy islohotlar ta‘sirida yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatilgan. 2020-yilda pandemiya omili tufayli o‘shish sur‘atlari pasaygan bo‘lsa-da, keyingi yillarda sanoat sektori tiklanib, 2024-yilda yana yuqori o‘shish darajasiga erishgan. Mazkur dinamik o‘shish sanoatning milliy iqtisodiyotdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi hamda uni samarali tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, sanoatni tartibga solishda qo‘llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlar tizimi yetarli darajada samarali emasligi aniqlangan.

Xususan, amaldagi mexanizmlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- soliq imtiyozlari va preferensiyalar;
- davlat subsidiyalari va grantlar;
- imtiyozli kreditlash tizimi;
- davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalari.

Quyidagi jadvalda yuqoridagi yo‘nalishlarini taqqoslama tahlilini ko‘rishingiz mumkin.

1-jadval

Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarining taqqoslama tahlili [8]

Mexanizm	Iqtisodiy ta‘siri	Afzalliklari	Asosiy muammolari
Soliq rag‘batlari (imtiyozlar)	Investitsiyalar hajmini oshiradi, ishlab chiqarish faolligini rag‘batlantiradi	Kapital qo‘shilmalarni jalb qiladi, biznes muhitni yaxshilaydi	Byudjet daromadlarining qisqarishi, noto‘g‘ri yo‘naltirish xavfi
Davlat subsidiyalari	Strategik tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi	Ijtimoiy va muhim tarmoqlarni rivojlantiradi	Samarasiz taqsimlanish, “boqimandalik” xavfi
Imtiyozli kreditlash	Ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, aylanma mablag‘larni oshiradi	Korxonalar likvidligini ta‘minlaydi, investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi	Qarzdorlikning ortishi, moliyaviy barqarorlikka xavf
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Xususiy sektorni jalb qiladi, infratuzilmani rivojlantiradi	Innovatsiya va samaradorlikni oshiradi, risklarni taqsimlaydi	Institutsional zaifliklar, shartnomaviy risklar
Innovatsion grantlar va fondlar	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi	Texnologik rivojlanishni tezlashtiradi	Mablag‘lardan noto‘g‘ri foydalanish xavfi
Eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari	Eksport hajmini oshiradi, valyuta tushumini ko‘paytiradi	Tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtiradi	Global bozor konyunkturasiga bog‘liqlik

Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu mexanizmlarning ayrimlari qisqa muddatli natijalarni ta‘minlayotgan bo‘lsa-da, ularning uzoq muddatli samaradorligi cheklangan. Jumladan, subsidiyalar ayrim hollarda resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelmoqda, soliq imtiyozlari esa byudjet daromadlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion faolligi past darajada ekanligi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining yetarli emasligi ham

aniqlangan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishini samarali tartibga solish iqtisodiy mexanizmlarning kompleks va muvozanatli tizimi orqali amalga oshiriladi. Xususan, AQSH va Yevropa Ittifoqi [9] mamlakatlarida sanoat siyosati asosan bozor mexanizmlariga asoslangan bo‘lib, davlat tomonidan innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish va soliq rag‘batlari keng qo‘llaniladi. Janubiy Koreya [10] va Yaponiya [11] tajribasida esa sanoatni rivojlantirishda davlatning strategik roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatlarda eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish va yirik sanoat korporatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishilgan.

Shuningdek, Germaniya [12] tajribasida sanoatni tartibga solish “Industry 4.0” konsepsiyasi asosida amalga oshirilib, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va global raqobatbardoshlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, rivojlangan davlatlar tajribasi sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishda bozor mexanizmlari va davlat siyosatining uyg‘unligi, innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuv hamda institutsional muhitning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, O‘zbekistonda sanoatni tartibga solishda davlatning roli ustun bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Biroq zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat rivojlanishini ta‘minlash uchun bozor mexanizmlarining rolini kuchaytirish zarur.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat siyosatida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan moliyalashtirish tizimi;
- raqobat muhitini shakllantirish;
- institutsional islohotlarni amalga oshirish;
- davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o‘rtni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Amaldagi mexanizmlar mavjud ijobiy natijalarga qaramay, yetarli darajada samarali emas va ularni modernizatsiya qilish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- soliq va subsidiyalar tizimini qayta ko‘rib chiqish va ularni maqsadli yo‘naltirish;
- innovatsion sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- iqtisodiy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi sanoat sektorining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Sanoat statistikasi (2010–2024). Stat.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Iqtisodiy rivojlanish hisobotlari.
3. Joseph Stiglitz. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2015.
4. Philippe Aghion et al. Industrial Policy and Competition // American Economic Journal, 2015.
5. Justin Yifu Lin. New Structural Economics. – World Bank, 2012.
6. S. G‘ulomov. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish. – Toshkent, 2018.
7. Abdug‘ani Abdullayev. Investitsiya siyosati. – Toshkent, 2020.
8. Jeffrey Sachs. Economic Development Strategies. – Columbia University, 2005.
9. Bakhodir Khodiev. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent, 2021.
10. A. Vahobov. Davlat moliyasi. – Toshkent, 2019.
11. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2017.
12. European Commission. Industry 4.0 Strategy. – Brussels, 2021.
13. Klaus Schwab. The Fourth Industrial Revolution. – 2016.
14. Erik Brynjolfsson. Digital Economy Studies. – MIT, 2019.